

## ADIB SOBIR TERMIZIY NOMIDAGI SURXONDARYO VILOYATI AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI TARIXI (1936–1991-YILLAR)

**Ma'ruf Abdushukurov**

*Adib Sobir Termiziy nomidagi Surxondaryo viloyat*

*axborot-kutubxona markazi direktori*

*[mabdushukurov44@gmail.com](mailto:mabdushukurov44@gmail.com)*

*<https://orcid.org/0009-0005-0389-2196>*

UDK 94 (575.1)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Surxondaryo viloyat kutubxonasining (hozirgi Adib Sobir Termiziy nomidagi axborot-kutubxona markazi) 1936-yildan 1990-yillarning boshigacha bo'lgan shakllanish va rivojlanish tarixi yoritilgan. Tadqiqotda kutubxona fondining o'sishi, boshqaruv tizimi, kataloglashtirish jarayonlari va kutubxonaning viloyatdagi metodik markaz sifatidagi o'zni arxiv ma'lumotlari asosida tahlil qilingan. Shuningdek, mustaqillik arafasida kutubxonaga milliy adib Sobir Termiziy nomining berilishi va sohadagi mafkuraviy o'zgarishlar masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Surxondaryo viloyat kutubxonasi, Adib Sobir Termiziy, kitob fondi, bibliografiya, kataloglashtirish, metodik markaz.

**Аннотация:** В данной статье освещается история формирования и развития Сурхандарьинской областной библиотеки (ныне Информационно-библиотечный центр имени Адиба Сабира Термези) в период с 1936 года до начала 1990-х годов. На основе архивных данных анализируются рост библиотечного фонда, система управления, процессы каталогизации и роль библиотеки как методического центра области. Также особое внимание уделяется присвоению библиотеке имени национального литератора Сабира Термези накануне независимости и идеологическим изменениям в этой сфере.

**Ключевые слова:** Сурхандарьинская областная библиотека, Адиб Сабир Термези, книжный фонд, библиография, каталогизация, методический центр.

**Abstract:** This article covers the history of the formation and development of the Surkhandarya Regional Library (currently the

Information and Library Center named after Adib Sabir Termizi) from 1936 to the early 1990s. Based on archival data, the study analyzes the growth of the book collection, the management system, cataloging processes, and the library's role as a methodological center in the region. Furthermore, special attention is paid to the naming of the library after the national writer Sabir Termizi on the eve of independence and the ideological changes in the field.

**Keywords:** Surkhandarya regional library, Adib Sabir Termizi, book collection, bibliography, cataloging, methodological center.

**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).** Surxondaryo viloyati madaniy-ma'rifiy hayotida kutubxonalar tizimi muhim o'rin egallab kelgan. Ayniqsa, viloyat miqyosida faoliyat yurituvchi markaziy kutubxona nafaqat kitob fondini jamlash va saqlash, balki aholining ma'naviy-ma'rifiy ehtiyojlarini qondirish, ilmiy axborot bilan ta'minlash hamda hududdagi boshqa kutubxonalar faoliyatini muvofiqlashtirishda yetakchi institut sifatida shakllangan.

XX asrning 30-yillaridan boshlab Surxondaryo hududida kutubxonachilik ishi bosqichma-bosqich rivojlanib bordi. Ayniqsa, 1936-yilda tashkil etilgan shahar kutubxonasi keyinchalik viloyat kutubxonasi darajasiga ko'tarilib, mintaqaning asosiy axborot va metodik markaziga aylandi. Ushbu jarayonda kutubxonaning tashkiliy tuzilmasi, fondining boyishi, bibliografik va kataloglashtirish ishlari, shuningdek, uning ijtimoiy-madaniy hayotdagi o'zni izchil ravishda shakllanib bordi.

**МУНОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ /**

**DISCUSSION).** Surxondaryo Viloyat kutubxonasi 1936-yilda shahar kutubxonasi sifatida tashkil etilgan. Tashkil etilganda kutubxona fondi 20 ming nusxani tashkil etardi. Kutubxona tashkil qilingan kundan e'tiboran uning doimiy va uzluksiz direktori sifatida Maria Pavlovna Kobyakova faoliyat yuritgan. U 1956 yilga qadar kutubxonani boshqarib, uning rivojlanishi va ishlab chiqarish tizimini yo'lga qo'yishda asosiy rol o'ynagan. Viloyat ijroiya qo'mitasining 1942-yil 1-yanvardagi 1-sonli buyrug'i bilan Termiz shahar kutubxonasi bazasida Surxondaryo viloyat kutubxonasi tashkil qilindi. O'sha vaqtda kutubxonada 5 nafar kutubxonachi shtati bor edi. Kitob fondi 40 ming nusxaga yaqin, kitobxonlari esa 500 kishini tashkil etardi[4].

1949-yilda rus adabiyotining namoyandalaridan biri — Aleksandr Sergeyevich Pushkin tavalludining 150-yilligi munosabati bilan tayyorgarlik ishlari keng ko'lamda olib borildi. Viloyat kutubxonasida ham ushbu yubileyga bag'ishlab katta tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, mazmunan boy kitob ko'rgazmalari tashkil etildi, maxsus ko'rgazmali kitob javonlari tayyorlandi. Shu bilan birga, ma'ruzalar, ovozi o'qishlar va adabiy suhbatlar o'tkazilib, Pushkin ijodi keng targ'ib qilindi.

Shu davrda kutubxona jamoasi O'zbekiston SSR tashkil topganining 25 yilligini ham munosib nishonladi. Ushbu sana munosabati bilan "O'zbekiston 25 yoshda" nomli kitob ko'rgazmasi bezatildi. Ko'rgazma 11 ta standdan iborat bo'lib, unda O'zbekiston va Surxondaryo viloyatining qishloq xo'jaligi, ayniqsa uning asosiy tarmog'i bo'lgan paxtachilik, sanoati hamda madaniy taraqqiyotiga oid materiallar keng yoritib berilgan edi[2].

Ijroiya qo'mitasining 1952-yil 3-martdagi 369-sonli qaroriga asosan, rus adabiyotining buyuk namoyandalaridan biri — Nikolay Vasilyevich Gogol vafotiga 100-yil to'lishi munosabati bilan Termiz shahridagi viloyat kutubxonasiga N. V. Gogol nomi berildi. Bu qaror kutubxonaning madaniy-ma'rifiy faoliyatini yuksaltirish va uning rus adabiyoti bilan yaqin aloqasini mustahkamlashga qaratilgan edi.

1954-yilda kutubxonada kitobxonlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida 15 o'rinli alohida o'quv zali va alohida kitob berish bo'limi tashkil etildi. Shu davrda kitoblarni qayta ishlash ishlari maxsus xodimlar bilan emas, balki bo'sh vaqtda turli xodimlar tomonidan amalga oshirilgan. Kutubxona shtati kamligi va kitobni qayta ishlashga mas'ul xodimning yo'qligi bu jarayonni ancha qiyinlashtirgan, lekin xodimlar o'z vaqtida vazifalarini bajarishga harakat qilganlar. Ushbu davrda kutubxona Surxondaryo viloyati madaniyat boshqarmasi bilan bitta binoda joylashgan edi. Binoda madaniyat boshqarmasi 3 xonani egallab olgani tufayli kutubxona faoliyati uchun ajratilgan joylar sezilarli darajada kamaygan. Bu esa kitob javonlarini taxlash va kitoblarni qayta ishlash jarayonini ancha og'irlashtirib, kutubxona xodimlari uchun qo'shimcha majburiyatlar tug'dirgan.

1950-yili Termiz shahridagi viloyat kutubxonasida kitoblarni kataloglashtirish ishlari boshlandi. Shu yili kutubxonaga bibliografiya shtati ham ajratildi, bu esa kitoblarni tizimli va qonuniy ravishda hisobga olish, ularni izlash va foydalanishni yengillashtirishga xizmat qildi.

1957-yilda kitoblarni qayta ishlash bo'limi alohida bo'lim sifatida tashkil etildi, va 1960-yil 31-avgustda viloyat kutubxonasida bibliografiya bo'limi tashkil qilindi. Kutubxonaning 1-bibliografi sifatida Usmon aka Cho'tboyev faoliyat yuritdi. Kutubxona qoniqarli kitob saqlash xonasi va yetarli kitob javonlariga ega bo'lib, butun fond qayta ishlangan va klassifikatsiya qilingan edi.

Kutubxonada ikki turdagi kitobxon kataloglari tashkil qilingan:

- Rus va o'zbek tillaridagi barcha adabiyotlarning sistemali katalogi;
- Faqat rus tilidagi adabiyotlarning alfavit katalogi.

Shuningdek, gazeta va jurnal maqolalarining sistemali kartotekasi ham tashkil qilingan edi, bu tadqiqotchilar va kitobxonlar uchun qulaylik yaratdi.

Yillar o'tishi bilan kutubxona spravka-bibliografik apparatini rivojlantirib bordi. 1968-yilga kelib, kutubxonada jami 7 ta katalog

mavjud bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga olgan: alfavit, sistemali, o'zbek tilidagi adabiyotlarning sistemali katalogi, predmet, topografik va badiiy adabiyotlar kataloglari. Bu kutubxonaning izlanish va ma'lumot taqdim etish salohiyatini sezilarli darajada oshirdi[2].

1970-yili Termiz shahridagi viloyat kutubxonasida o'zbek tilidagi adabiyotlarning alfavitli katalogi tuzildi. Shu davrda kutubxona viloyatdagi 346 ta kutubxona uchun uslubiy markaz vazifasini bajarib, ularga metodik va amaliy yordamlar berib bordi. Bu maqsadda 10 ta uslubiy xat ham tuzilgan edi.

1974-yilga kelib viloyatda kutubxonalar soni 390 taga yetdi. Viloyat kutubxonalari tarmog'ini markazlashtirishga tayyorgarlik boshlanib, markazlashgan tizimda aholiga xizmat ko'rsatish rejasi ishlab chiqildi. 1973-yili ayriboshlash fond sektori tashkil qilindi.

Shu davrda viloyatda kutubxonalararo "A'lo kutubxona ishi" unvoni uchun musobaqa yo'lga qo'yildi, bu kutubxonalarning g'oyaviy darajasini ko'tarishda, kutubxona faoliyatini hayot bilan bog'lashda, yangi kitobxonlarni jalb qilishda va moddiy-texnika bazasini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

1976-yili viloyat kutubxonasi 6 ta uslubiy qo'llanma tuzdi va viloyatdagi 426 ta kutubxonaga uslubiy markaz sifatida xizmat qildi. Shu yili kutubxona bevosita rahbarligida tarmoqlarni markazlashtirish amalga oshirildi. Bir qator kechikuvlar bilan Denov va Sho'rchi rayonlari hamda Denov shahar kutubxonalari markazlashgan tizimga o'tkazildi.

Viloyat kutubxonasi kutubxonalararo abonement bo'yicha uslubiy markaz vazifasini ham bajarib, kutubxonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga metodik hamda amaliy yordam ko'rsatdi. Shu maqsadda Sherobod, Qumqo'rg'on va Angor rayonlari kutubxonalaridan 5 xodim malaka oshirish (stajirovka) uchun kutubxonalararo abonementda bo'ldilar.

Shu bilan birga, kutubxona 5 shahar — Moskva, Leningrad, Dushanbe, Ashxabad va Toshkent bilan aloqa o'rnatib, ulardagi 10 ta kutubxonaga 243 ta so'rov yubordi va 324 nusxa kitob oldi. Bu tadbirlar kutubxona faoliyatining sifatini oshirish va viloyat

aholisiga kengroq ma'lumot taqdim etishga xizmat qilgan[2].

1974-yilda sobiq Ittifoq hukumatining kutubxonachilik ishiga oid qabul qilgan qarori asosida mamlakatda markazlashtirilgan kutubxonalar tizimi tashkil topdi. Bu tizimning xususiyati shundan iborat ediki, hududlar xususiyatidan kelib chiqqan holda alohida tizimlar shakllandi, ularning tarkibida markaziy kutubxona va uning atrofida filiallar birlashib, tizimni boshqarish, mablag' bilan ta'minlash, rejalashtirish va hisobot ishlari, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, hisob-kitob ishlari, fondni to'ldirish, unga qayta ishlov berish, texnik va ilmiy ishlov berish Markaziy kutubxona zimmasiga, aholiga kutubxona xizmati ko'rsatish filiallarga birlashtirildi. Kutubxonalarda ilg'or ish usullarini o'rganish, o'zaro hamkorlik qilish, ichki va tashqi kitob ayriboshlash, kutubxonalararo abonement, sirtqi abonement, Xalqaro abonement ishlari shu davrda rivojlantirildi. Markaziy kutubxona butun bir tizim uchun ilmiy-uslubiy, bibliografik ish markaziga aylandi. 1975-1990-yillarda "Kutubxonashunoslik" fanining rivojlanishida asosiy e'tibor respublikada maktab o'quvchilari va bolalarga kutubxona xizmati ko'rsatish sifatini oshirish masalalariga qaratildi[3].

1979-yilda kutubxona kitobxonlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash maqsadida mavjud barcha imkoniyat va resurslardan samarali foydalandi. Bu borada, avvalo, kutubxona faoliyatini aholi orasida keng targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, turli o'quv yurtlari, paxta zavodlari, go'sht-sut kombinatlari, qurilish tashkilotlari va trestlar, shuningdek, yoshlar tashkilotlari hamda boshqa muassasalarga chiqishlar amalga oshirildi. Bu joylarda talabalar va ishchilar bilan uchrashuvlar o'tkazilib, kutubxonaning faoliyati, uning boy kitob fondi va xizmat turlari haqida atroflicha ma'lumot berildi.

Ikkinchidan, kitobxonlarni jalb etish va ularning qiziqishlarini oshirish maqsadida kitob ko'rgazmalari, adabiy obzorlar va suhbatlar soni ancha ko'paytirildi. Ushbu tadbirlarga tabiblar, huquqshunoslar, o'qituvchilar, kasaba uyushmalari xodimlari kabi turli sohalar mutaxassislari keng jalb etildi. Bu esa

tadbirlarning mazmunan boy va qiziqarli o'tishiga xizmat qildi.

Kitobxonlarga xizmat ko'rsatish ishlari kutubxonaning asosiy bo'limlari — xizmat ko'rsatish va bibliografiya bo'limlari o'rtasidagi hamkorlik asosida tashkil etildi. Bu esa xizmat ko'rsatish samaradorligini yanada oshirish imkonini berdi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, kutubxona kitobxonlarining 3157 nafari ayollar bo'lib, bu umumiy kitobxonlarning 37,8 foizini tashkil etgan. Shuningdek, mahalliy millat vakillari 1610 nafarni, ya'ni 19,3 foizni tashkil qilgan.

1984-yilda Termiz shahri aholisiga jami 24 ta kutubxona xizmat ko'rsatgan. Ular tarkibiga 3 ta viloyat kutubxonasi, 1 ta shahar markazlashgan kutubxonalar tizimi va uning 9 ta filiali, shuningdek, 10 ta kasaba uyushmalari kutubxonalari kirgan. Shahar aholisiga kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada samarali tashkil etish maqsadida qo'shma muvofiqlashtirilgan reja ishlab chiqilib, barcha ishlar aynan shu reja asosida amalga oshirilgan.

Viloyat kutubxonasi tomonidan qator ommaviy tadbirlar tashkil etilgan bo'lib, ulardan biri "Biz — ishchi yoshlar sinfi" nomli kitobxonlar konferensiyasidir. Unda 123 nafar kitobxon ishtirok etgan. Qatnashchilar orasida ishchi yoshlar, hunar-texnika bilim yurtlari o'quvchilari hamda maktablarning yuqori sinf o'quvchilari mavjud bo'lgan. Har bir guruh uchun alohida ravishda "Hayotga yo'llanma", "Ishchi kasblariga yo'l" kabi mavzularda kitob ko'rgazmalari tashkil etilgan.

Muvofiqlashtirish rejasiga ko'ra, shahardagi muassasa va ishlab chiqarish korxonalarini axborot bilan ta'minlash, brigada abonementlarini tashkil qilish hamda ommaviy tadbirlar o'tkazish vazifalari aniq kutubxonalarga birlashtirilgan. Bu esa kutubxona xizmatining tizimli va maqsadli yo'lga qo'yilishini ta'minlagan.

Shuningdek, viloyat kutubxonasida kitob fondini saqlash va undan samarali foydalanish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan. Kitobxonlarga xizmat ko'rsatish bo'limida joy tanqisligi yuzaga kelgani sababli yordamchi fond kitob saqlash bo'limiga o'tkazilgan. Natijada kitob fondining saqlanishi ta'minlanib, yagona nusxadagi kitoblar faqat

o'quv zali orqali foydalanish uchun taqdim etilgan. Bu esa o'quv zalidan foydalanuvchi kitobxonlar soni va ularga berilgan kitoblar hajmining oshishiga olib kelgan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, kutubxonaning kitobxonlarga xizmat ko'rsatish bo'limidan 1615 nafar xalq xo'jaligining turli tarmoqlari mutaxassislari, 165 nafar ilmiy xodimlar va oliy o'quv yurti o'qituvchilari, shuningdek, 67 nafar partiya va hukumat rahbarlari muntazam foydalangan.

"Ilhomli mehnat tinchlik va taraqqiyot uchun" deb nomlangan adabiy kecha orqali kutubxonaning ko'plab kitobxonlari surxondaryolik ijodkorlar — Bolta Yoriyev, Narzulla So'fiyev, Shafoat Rahmatullayev, Boltajon Sodiqov, Mengziyo Safarov, Eduard Tsutsayev, Aleksandr Divyanin va Larisa Yamatina kabi shoirlar ijodi bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Shuningdek, kitobxonlar "Surxondaryo adabiy hayoti" deb nomlangan kitob ko'rgazmasini katta qiziqish bilan tomosha qildilar. Ushbu madaniy tadbirlarni yuqori saviyada tashkil etishda kutubxona xodimlari — T. P. Putina, Z. V. Haydarova va V. M. Tsarevskaya katta tashabbus va tashkilotchilik qobiliyatini namoyon etdilar.

1990-yilga kelib Termiz shahri aholisiga jami 29 ta kutubxona xizmat ko'rsatgan. Ulardan 13 tasi Madaniyat vazirligi tizimiga qarashli bo'lgan. Shu davrda shahar aholisi taxminan 70 ming kishini tashkil etgan bo'lib, vazirlik tizimidagi kutubxonalarga aholining jalb etilishi 51 foizni, umumiy jalb ko'rsatkichi esa 56,5 foizni tashkil qilgan[2].

Viloyat kutubxonasi tomonidan shahar aholisiga xizmat ko'rsatish "muvofiqlashtirilgan reja" asosida amalga oshirilib, 10 ta korxona xodimlariga brigada abonementi orqali axborot-kutubxona xizmati ko'rsatilgan. Bu esa ishlab chiqarish jamoalarida kitobxonlikni rivojlantirish va aholini ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etgan.

1991-yil Surxondaryo viloyat kutubxonasi uchun unutilmas yil bo'ldi. Shu yili ajoyib inson Usmon Cho'tboyev rahbarligidagi N.V.Gogol nomidagi viloyat kutubxonasi ma'muriyati tomonidan tushgan taklif hamda

viloyat ijroiya qo'mitasi huzuridagi atamalar komissiyasining 1991-yil 22-apreldagi 1-sonli qaroriga asosan xalq deputatlari viloyat kengashi ijroiya qo'mitasi "N.V.Gogol nomidagi viloyat kutubxonasi nomini o'zgartirish to'g'risida" qaror qabul qildi. Ana shu qarorga binoan N.V.Gogol nomidagi viloyat kutubxonasiga "Adib Sobir Termiziy" nomi berildi. 1992-yil kutubxonada 42 ta dolzarb mavzularda kitob ko'rgazmalari o'tkazildi. Respublikada 17 mingdan ortiq har xil turdagi kutubxonalar bo'lib, ulardan 6791 nafari universal va ommaviy davlat kutubxonalaridir [4].

1991-yil O'zbekiston mustaqilligi qo'lga kiritilganidan so'ng jamiyatning barcha qatlamlarida o'zgarishlar yuz berdi. Bozor iqtisodiyoti sharoitiga o'tish davri boshlandi. Ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohalarda bo'lgani kabi madaniyat va san'at sohasida ham milliylikka e'tibor oshdi. Milliy urf-odatlarimizni takomillashtirish, milliy qadriyatlarimizni qaytadan o'rganish, tahlil qilish, ayniqsa, o'zbek millati tarixini yangi nuqtai nazardan o'rganish masalasi, ma'naviyatni shakllantirish, rivojlantirish oldingi o'ringa chiqdi. Diniy qadriyatlar qaytadan tiklandi[4].

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 1936–1991-yillar oralig'ida Surxondaryo viloyat kutubxonasi oddiy shahar kutubxonasidan hududiy ahamiyatga ega bo'lgan yirik axborot va metodik markaz darajasiga qadar rivojlandi. Ushbu davr mobaynida kutubxona fondi muntazam ravishda boyitilib, kitobxonlarga xizmat ko'rsatish sifati yaxshilandi, bibliografik va kataloglashtirish ishlari takomillashtirildi.

Kutubxona nafaqat axborot manbai, balki viloyatdagi yuzlab kutubxonalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi uslubiy markaz sifatida ham muhim rol o'ynadi. Markazlashtirilgan kutubxonalar tizimining joriy etilishi esa uning boshqaruv va tashkiliy imkoniyatlarini yanada kengaytirdi.

1991-yilda kutubxonaga "Adib Sobir Termiziy" nomining berilishi esa milliy qadriyatlar va tarixiy merosga bo'lgan e'tiborning ortganligini ifodalab, sohada yangi bosqichni boshlab berdi. Mustaqillik arafasidagi ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy o'zgarishlar kutubxona faoliyatida ham o'z aksini topib, uning milliy yo'nalishda rivojlanishiga zamin yaratdi.

#### ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI

#### (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.06.2016-yildagi "Termiz shahrida "Adib Sobir Termiziy" nomidagi Surxondaryo viloyat axborot-kutubxona markazining yangi binosini qurish to'g'risida"gi 208-son qarori.
2. Adib Sobir Termiziy nomli viloyat universal-ilmiy kutubxonasi 60 yoshda. – Termiz. 1996. – 76 b.
3. Yo'ldosheva S. O'zbekistonda kutubxonachilik sohasining rivoji. Oriental Art and Culture, (7), 2021. – B. 260-268.
4. Tursunov N., Normengliyeva N. "Adib Sobir Termiziy" nomli Surxondaryo viloyat axborot-kutubxona markazi tarixi // O'zbekiston Milliy universiteti xabarлари. – Toshkent, 2025. – № [1/5/1]. – B. 30-32. – ISSN 2181-7324. <http://journals.nuu.uz>